



## FARMOYISH

2026-yil

15-may

TOSHKENT

136-YH-son

### **“Joylarida tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish to‘g‘risida”**

Tadbirkorlar kuni arafasida o‘tkaziladigan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan VI ochiq muloqotiga puxta tayyorgarlik ko‘rish “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tomonidan tadbirkorlarning murojaat, muammo va takliflarini tizimli o‘rganish hamda joyida hal etish maqsadida **buyuraman:**

**1.** Respublikaning barcha viloyatlari, Toshkent shahri va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish maqsadida ishchi guruh ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

**2.** Ishchi guruh va “Temiryo‘linfratuzilma” AJning mintaqaviy temir yo‘l uzellari filial rahbarlari tomonidan 15 maydan 15 avgustga qadar respublika hududida tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish reja-grafigi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

**3.** “Temiryo‘linfratuzilma” AJning mintaqaviy temir yo‘l uzellari filial rahbarlari 1 kun muddatda o‘z hududidagi tegishli tumanlarda tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish bo‘yicha reja-grafigi ishlab chiqib, tasdiqlasin va ishchi guruhga taqdim qilsin.

**4.** Ishchi guruh tomonidan har kunlik uchrashuvlarda tadbirkorlar ko‘targan masalalar va ular bo‘yicha ko‘rilgan choralar yuzasidan ma‘lumotlar yig‘ib borilsin va umumlashtirilib har kuni (soat 18:00 ga qadar) Respublika shtabiga taqdim qilinsin.

**5.** Axborot media Markazi (Baltabayev) tashkil etiladigan uchrashuvlar vaqti va o‘tkaziladigan joyi bo‘yicha ma‘lumotlar jamiyat veb-saytida va ijtimoiy tarmoq kanallarida yoritib borsin.

**6.** Ushbu farmoyish ijrosi nazorati “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruv raisi o‘rinbosari A.A. Kamildjanov zimmasiga yuklatilsin.

**Boshqaruv raisi**



**Z.G‘. Narzullayev**

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ

boshqaruv raisining

\_\_\_\_\_ 2026 yildagi \_\_\_\_\_ - sonli

farmoyishiga

1-ILOVA

**Tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish bo‘yicha  
ishchi guruhi tarkibi**

A.A. Kamildjanov	( <i>Ishchi guruh rahbari</i> ) “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruv raisi o‘rinbosari
S.A. Norqobilov	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ boshqaruv raisi
Sh.R. Mavlyanov	Iqtisodiy tahlil va prognozlash departamenti boshlig‘i o‘rinbosari – Logistika va marketing boshqarmasi boshlig‘i
F.R. Narbaev	Tashishlarni tashkil etish departamenti boshlig‘i
Q.Q. Narzullayev	Vagon xo‘jaligi departamenti
E.S. Shamsiyev	Yuk va tijorat ishlari boshqarmasi boshlig‘i
Z.I. Seydullayev	“O‘ztemiryo‘lhisob” boshqarmasi boshlig‘i
A.A. Muminov	“Temiryo‘lkargo” AJ boshqaruv raisi
M.K. Mirxamidov	“O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ boshqaruv raisi

*Izoh 1: Ushbu ishchi guruhdagi rahbar xodimlar ayrim sabablarga ko‘ra uchrashuvda ishtirok etolmagan taqdirda o‘rnini vakolatga ega boshqa rahbar xodim egallaydi.*

*Izoh 2: Zaruriyatdan kelib chiqib, ushbu ishchi guruhga tegishliligi bo‘yicha rahbar va mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.*

**Joriy yilning 15 maydan 15 avgustga qadar har hafta tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish bo‘yicha  
REJA GRAFIK**

	Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Shanba	Yakshanba
Ishchi guruh							
Toshkent MTU							
Qo‘qon MTU							
Buxoro MTU							
Qo‘ng‘irot MTU							
Qarshi MTU							
Termiz MTU							